



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№2(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 234 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik omillari	22
<i>Ashurov Ramzidin Ramazonovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolaning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila bilan ishlashning nazariy asoslari	27
<i>Jumanova Fatima Uralovna, Allaberganova Munisa Begimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning metodologik asoslari	32
<i>Jo'rayeva Nargiza Tairovna, Bekbergenova Yulduz Tanirbergen qizi</i>	
Faoliyatli yondashuv asosida maktabgacha 6-7 yoshli bolalarda nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	35
<i>Ziyodullayeva Mohirabonu Ikromjon qizi</i>	
Davlat ta'lim muassasalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ...	39
<i>Xaybatullaeva Sojidxon Ziyatullayevna</i>	
Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda integratsion yondashuv	42
<i>Kamoliddinov Mirzohid</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning samaradorligi	45
<i>Kamoliddinova Dilnoza Axmadilaxanovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish mexanizmlari.....	48
<i>Nurjanova Rayxan Urazbaevna</i>	
Sinf biologiya fanini o'qitishda TIMSS topshiriqlardan foydalanish metodikasi va baholash mezonlari	52
<i>Xaitboyeva Dilorom Rustam qizi</i>	
Qandli diabet tashxisli bemorlarda shaxs tuzilmasining emotsional komponentlari	56
<i>Sadikova Umida Botirovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogik diagnostikani amalga oshirishning natijaviyligi	60
<i>Maxmutzimova Yulduz Raxmatovna, Qodirova Shaxnoza Saidazim qizi</i>	
Kasbiy imij shakllanishida psixologik jihatlarining tafovutlari	64
<i>Aminova Dilnoza Orifjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining jamoa bilan ishlash jarayonida yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish	69
<i>Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishida psixologik moslashuvning tipik xususiyatlari	73
<i>Mirsaitova Guzal Baxodirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida variativ modellashirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining qo'llanilishi	76
<i>Quvvatova Mohira Hikmatillayevna</i>	
Interfaol treninglar orqali o'qituvchilarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish tajribasi	79
<i>Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyani shakllantirishning ahamiyati.....	82
<i>Zulayxo Nazarova, Qarshiboyeva Muxlisa Ismatullo qizi</i>	
Ijodiy qobiliyatni o'stirishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlar	85
<i>Mutallibova Odinaxon Mirzaolimjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olimpiadalarga tayyorlashda masalalar yechish texnologiyasi 11-sinf misolida	89
<i>Aslonov Xayrullo Shukrullo o'g'li</i>	



Bokschi qizlarni texnika taktikasini takomillashtirish.....	94
<i>Axmedov Latifjon G'ayrat o'g'li</i>	
Ixtisoslashtirilgan terminologiyaning asosiy lingvistik xususiyatlari	99
<i>Axmedova Dilnoza Anvarovna</i>	
Interfaol metodlar orqali zamonaviy darslarni tashkil etishning o'ziga xos tendensiyalari	102
<i>Bakirov Otabek Bo'ranovich</i>	
Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilishning metodologik muammolari	106
<i>D. J. Norboyeva</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalari ruhiyatiga virtual muhitning salbiy ta'siri	110
<i>Giyosov Ulug'bek Eshpulatovich, Turayeva Nigora Husniddin qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	113
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar	117
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i>	
Principles of Organising Autonomous Learning.....	121
<i>Khazratova Zukhra Mamaraimovna</i>	
Najot – ta'limda, najot-tarbiyada	124
<i>Mo'minova Manzura Mamasodiqjonovna</i>	
Educational Potential of Museum Pedagogy and Criteria for its Application in Developing Historical Thinking of Pre-Service History Teachers.....	127
<i>Niyozov Javlonbek</i>	
Landshaft dizayni vastasida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining estetik va kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish	131
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna</i>	
Abdulla Avloniy pedagogik merosida shaxs psixologiyasi masalalari.....	134
<i>S. O. Mamarasulov, D. A. Egamberdiyeva</i>	
TBL metodini qo'llash orqali o'quvchilarning madaniyati va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish....	138
<i>Sodikova Oyshakhon Muxammadsodik</i>	
Pedagogik innovatsiyalarni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari.....	142
<i>Soliqova Barno Sodiq qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim magistratura talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirish shart-sharoitlari	146
<i>Yarmatov Shermo'min Rahmatovich</i>	
Формирование готовности родителей детей старшего дошкольного возраста к выполнению воспитательной функции в семье.....	149
<i>Атаджанова Сохиба Талиповна</i>	
Redjio pedagogik yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	152
<i>Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Otahonova Marjona</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	155
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida chet tili o'qituvchilari va talabalar o'rtasidagi interaktsiyaning pedagogik samaradorligi va innovatsion mexanizmlari	163
<i>Eshonqulova Umida Xolmirzayevna</i>	
MTTlarda nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulotlarda interfaol usullardan foydalanish texnologiyasi	168
<i>To'laboyeva Iqbolaxon Olimjonovna</i>	
Ta'lim jarayonidagi konfliktlar.....	173
<i>Abulova Mohigul Komiljonzoda</i>	
Talabalarining bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish	176
<i>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</i>	

Shaxs tuzilmasida ma'naviy intellekt: nazariy-metodologik tahlil va psixologik interpretatsiya	179
Mirxoliqova Charos Xabibullaevna	
18-20 yoshli belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi jismoniy tayyorgarliklari	183
Muzafarov Muxammadali Maxsudovich	
Talabalarda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanib kasbiy madaniyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar (boshlang'ich ta'limda tarbiya fani misolida)	187
Yadgarova Surayyo	
Maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish	190
Yo'ldoshova Shahlo Shukurullo qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy tahlili	194
Yusupova Sanobar Odil qizi	
Типология научного текста: от жанровой классификации к дискурсивной модели	197
Бахтияр Катибжанович Саттаров	
Взаимодействие педагога и семьи в профилактике и преодолении стресса у детей дошкольного возраста	201
Г. С. Алиходжаева, Х. Рахимова	
Условия эффективности инклюзивного образования	206
Г. С. Алиходжаева, Л. О. Бекмуродова	
Педагогическая готовность к обучению в школе детей билингов	211
Г. С. Алиходжаева, Н. А. Ганиева	
Педагогические условия формирования эмоционального интеллекта у дошкольников	216
Джалилова Феруза Намазовна	
Milliy meros va musiqiy madaniyatning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni	219
Zuhriddin Azizov	
Госпитальная школа как пространство поддержки и развития ребёнка (на примере госпитальной школы при детской клиники Синсиннати, США)	222
Муминов Р. Р., Хакимова Н. Х., Набиева Г. Г.	
Интерактивные формы работы в процессе профориентации детей дошкольного возраста	227
Н. Т. Жураева, С. М. Ахмеджанова	
Samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar	231
Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna	

BO'LAJAK TARBIYACHILARDA KREATIV FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Nurjanova Rayxan Urazbaevna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
"Tillar va maktabgacha ta'lim" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish muammosi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, kreativ faollik tushunchasining mazmuni ochib berilib, uning tarkibiy komponentlari (motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv) asoslab beriladi, bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar aniqlanib, ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativ faollik, bo'lajak tarbiyachi, maktabgacha ta'lim, ijodiy fikrlash, pedagogik mexanizmlar, innovatsion yondashuv, kasbiy kompetentlik.

Abstract: In this article, the problem of developing creative activity in future educators is scientifically-theoretically and practically analyzed. The content of the concept of creative activity is also revealed, its structural components (motivational, cognitive, activity-based and reflexive) are substantiated, pedagogical mechanisms serving the development of creative activity in future educators are identified, and their effectiveness in the educational process is considered.

Key words: creativity, creative activity, future educator, preschool education, creative thinking, pedagogical mechanisms, innovative approach, professional competence.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически и практически анализируется проблема развития креативной активности у будущих воспитателей. Также раскрывается содержание понятия креативной активности, обосновываются ее структурные компоненты (мотивационный, познавательный, деятельностный и рефлексивный), выявляются педагогические механизмы, служащие развитию креативной активности у будущих воспитателей, рассматривается их эффективность в образовательном процессе.

Ключевые слова: креативность, креативная активность, будущий воспитатель, дошкольное образование, творческое мышление, педагогические механизмы, инновационный подход, профессиональная компетентность.

KIRISH

Bugungi globallashuv va ta'lim tizimining jadal rivojlanishi sharoitida maktabgacha ta'lim sohasiga qo'yi-layotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Jamiyat taraqqiyoti, innovatsion yondashuvlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi bo'lajak tarbiyachilardan nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni, balki yuqori darajadagi kreativ faollikni ham talab etmoqda. Ayniqsa, maktab-gacha yoshdagi bolalar bilan ishlash jarayonida tarbiyachining ijodiy yondashuvi, mustaqil fikrlashi va yangicha qarorlar qabul qila olish qobiliyati ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida an'anaviy yondashuvlar o'rnini innovatsion, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar egallamoqda. Bu esa bo'lajak tarbiyachilarning kreativ faolligini tizimli ravishda rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Chunki kreativ faollik tarbiyachining kasbiy moslashuvchanligi, pedagogik tashabbuskorligi va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarda kreativlik muammosi umumiy pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan o'rganilgan bo'lsa-da, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida kreativ faollikni rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash va asoslash masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Shu bois tadqiqotimizda bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirishning mazmuni, ahamiyati hamda samarali mexanizmlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish dolzarb vazifa sifatida belgilab olindi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog shaxsiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalari uchun kadrlar tayyorlash jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ faolligini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmoqda. Ilmiy manbalarda kreativlik tushunchasi shaxsning yangicha fikrlash, muammolarga noodatiy yechim topish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

E.Torrens yondashuviga ko'ra, kreativlik muammoni aniqlash va anglash, uni hal etish yo'llarini izlash, taxmin (gipoteza)larni ilgari surish, ularni sinovdan o'tkazish va qayta ko'rib chiqish, zarur hollarda o'zgartirish hamda olingan natijalarni umumlashtirish jarayonlarini o'z ichiga oladi ^[3].

Kreativ faollik esa ushbu qobiliyatning pedagogik faoliyat jarayonida amaliy namoyon bo'lish shakli hisoblanadi. U tarbiyachining kasbiy tashabbuskorligi, innovatsion faoliyati hamda pedagogik jarayonga ijodiy yondashuvi orqali ifodalanadi.

D.Bogoyavlenskaya tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvda ijodkorlik tashqi vaziyat yoki maxsus rag'batlarga bog'liq bo'lmagan ichki faollik shakli sifatida talqin qilinadi. Ushbu konsepsiyada shaxsga xos bo'lgan "ijodiy faollik" tushunchasi markaziy o'rin egallaydi. Ijodkorlikning asosiy ko'rsatkichi, olimning fikriga ko'ra, ikki komponentni birlashtirgan intellektual faollikdir: kognitiv (umumiy aqliy qobiliyatlar) va motivatsion. Ijodkorlikning namoyon bo'lish mezonini insonning unga taklif qilingan aqliy topshiriqlarni bajarish xarakteri hisoblanadi ^[1].

XX asrning 60-90-yillarida ijodiy faoliyat tushunchasi V.Drujinin ^[2], N.Kuzmina ^[3], A.Voronin ^[7] kabi olimlar tomonidan "kreativlik" fenomeni sifatida o'rganila boshlagan.

Nazariy manbalarda (A.S.Makarenko, L.S.Vygotskiy, I.A.Zimnyaya) ^[6, 4, 8] kreativ faollikni shakllantirish shaxsning shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayoni bilan chambarchas bog'liq ekani ta'kidlangan. Pedagogik nuqtayi nazardan bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollik quyidagi tarkibiy komponentlar asosida shakllanadi:

- motivatsion komponent – kasbiy faoliyatga ijodiy qiziqish, yangilikka intilish;
- kognitiv komponent – kreativ tafakkur, nazariy bilimlar va innovatsion g'oyalarni anglash;
- faoliyatli komponenti – ijodiy metod va texnologiyalardan foydalanish malakasi;
- refleksiv komponent – o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyati.

Mazkur komponentlar o'zaro uzviy bog'liq holda rivojlanib, bo'lajak tarbiyachining kasbiy kompetentligini shakllantiradi.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, kreativ faollikni rivojlantirish jarayoni aniq mexanizmlar asosida tashkil etilishi lozim. Ushbu mexanizmlar pedagogik jarayonning mazmuni, metodlari, shakllari va vositalarining uyg'unligi orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va faoliyatga asoslangan yondashuvlar kreativ faollikni rivojlantirishning metodologik asosi sifatida xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslashga yo'naltirilgan. Tadqiqot jarayonida shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy hamda faoliyatga asoslangan yondashuvlar metodologik asos sifatida tanlab olindi.

Tadqiqotning metodologik asosini pedagogika va psixologiya fanlarida kreativlik, ijodiy faoliyat hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga doir ilmiy g'oyalar, zamonaviy ta'lim konsepsiyalari va normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

Tadqiqot davomida quyidagi nazariy metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish orqali kreativ faollik muammosining nazariy asoslarini aniqlash;
- empirik metodlar: pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma va testlar yordamida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ faollik darajasini aniqlash;
- tajriba-sinov metodi: kreativ faollikni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik mexanizmlarning samaradorligini tekshirish;
- diagnostik metodlar: talabalarning kreativ faolligini aniqlovchi mezon va ko'rsatkichlar asosida baholash;
- matematik-statistik metodlar: olingan natijalarni tahlil qilish va ularning ishonchliligini aniqlash.

Tadqiqot jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi diagnostik bosqichda bo'lajak tarbiyachilarning kreativ faollik darajasi aniqlanib, mavjud holat tahlil qilindi. Shakllantiruvchi bosqichda kreativ faollikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlar amaliyotga joriy etildi. Oxirgi yakuniy bosqichda esa tajriba natijalari umumlashtirilib, tahlil qilindi va ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish jarayonini takomillashtirish, ta'lim mazmunini boyitish hamda pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish samaradorligini aniqlash maqsadida oliy ta'lim muassasalarining "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi talabalari ishtirokida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish mexanizmlarining samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tahlil jarayonida talabalarining kreativ faolligi motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlar asosida baholandi.

Dastlabki diagnostika natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarining aksariyat qismida kreativ faollik o'rtacha darajada shakllangan bo'lib, ijodiy tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash va innovatsion yondashuv ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan. Ayniqsa, talabalarining pedagogik vaziyatlarga noodatiy yondashish hamda ijodiy qaror qabul qilish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishi aniqlandi.

Shakllantiruvchi bosqichda kreativ faollikni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik mexanizmlar kreativ topshiriqlar, interfaol metodlar, loyiha faoliyati, pedagogik treninglar va refleksiv tahlil usullari ta'lim jarayoniga joriy etildi. Mazkur faoliyat talabalarining mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, ijodiy fikrlash faolligini kuchaytirish hamda pedagogik jarayonga yangicha yondashuvni shakllantirishga xizmat qildi. Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish quyidagi asosiy mexanizmlar orqali amalga oshirildi:

Motivatsion mexanizm. Talabalarda kasbiy faoliyatga nisbatan ijobiy munosabat, ijodiy o'sishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish kreativ faollikni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Bunda rag'batlantirish, muvaffaqiyatli ijodiy ishlarni e'tirof etish, mustaqil tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Kognitiv mexanizm. Bo'lajak tarbiyachilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, pedagogik va psixologik fanlar asosida kreativ fikrlash usullarini o'zlashtirish ushbu mexanizmning asosini tashkil etadi. Muammoli ta'lim, integrativ yondashuv va tahliliy topshiriqlar kognitiv faollikni oshiradi.

Faoliyatga yo'naltirilgan mexanizm. Amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot, ijodiy loyihalar va interfaol metodlar orqali talabalarining faol ishtiroki ta'minlanadi. Rolli o'yinlar, keys-stadi kabi metodlar bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy imkoniyatlarini namoyon etishga xizmat qiladi. Interfaol ta'lim metodlari bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu metodlar talabalarining mustaqil fikrlashi, erkin muloqoti va ijodiy hamkorligini rag'batlantiradi. Jumladan, "Aqliy hujum", "Klaster", "Konseptual xarita", "Loyiha metodi" kabi usullar pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va yangicha yechimlar ishlab chiqishga imkon yaratadi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak tarbiyachilarning kreativ salohiyatini oshirishga yordam beradi. Multimedia vositalari, onlayn platformalar va raqamli resurslar orqali ta'lim jarayonining innovatsion modeli shakllanadi.

Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni samarali rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim deb hisoblandi: ijodiy muhitni yaratish, talabalarining individual qobiliyatlarini hisobga olish, mustaqil va ijodiy topshiriqlar ulushini oshirish, refleksiya va o'z-o'zini baholash jarayonlarini yo'lga qo'yish. Mazkur shart-sharoitlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Yakuniy diagnostika natijalari dastlabki ko'rsatkichlar bilan solishtirilganda sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuza-tildi. Xususan, tajriba guruhida kreativ faollikning yuqori darajasi oshgani, o'rtacha darajadagi ko'rsatkichlar barqarorlashgani hamda past darajadagi ko'rsatkichlar kamaygani aniqlandi. Talabalarda pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish, ijodiy g'oyalarni ilgari surish va mashg'ulotlarni innovatsion asosda tashkil etish ko'nikmalari shakllandi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, kreativ faollikni rivojlantirish jarayonida pedagogik mexanizmlarning tizimli qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, nazariya va amaliyot uyg'unligi, ijodiy muhitning yaratilishi hamda talabaning shaxsiy faolligini qo'llab-quvvatlash kreativ faollik darajasining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Umumiy natijalar kreativ faollikni rivojlantirish mexanizmlarining samaradorligini tasdiqladi hamda ularni bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayoniga keng joriy etish zarurligini ko'rsatdi. Olingan ilmiy xulosalar maktabgacha ta'lim yo'nalishida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimining muhim talablaridan biri hisoblanadi. Kreativ faollik tarbiyachining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, pedagogik jarayonga ijodiy yondashish hamda bolalarining individual qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot jarayonida kreativ faollikning motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlardan iborat yaxlit tizim ekanligi aniqlandi.



Ushbu komponentlarning o'zaro birgalikta rivojlanishi bo'lajak tarbiyachining kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qiladi.

Amaliy tajriba-sinov ishlari natijalari kreativ faollikni rivojlantirish maxsus pedagogik mexanizmlar asosida tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini tasdiqladi. Xususan, kreativ topshiriqlar, interfaol metodlar, loyiha faoliyati, pedagogik treninglar hamda reflektiv tahlil usullarining qo'llanilishi talabalarning ijodiy fikrlashi va tashabbuskorligini sezilarli darajada oshirdi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida kreativ faollikni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik mexanizmlarni tizimli ravishda joriy etish zarur. Bu esa kelajakda ijodkor, innovatsion fikrlovchi va kasbiy jihatdan raqobatbardosh tarbiyachilarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей: учебное пособие для студентов вузов, обучающихся по направлению и специальностям психологии / Д.Б.Богоявленская. – Москва : Academia, 2002. – 317 с.
2. Дружинин В.Н. Психология общих способностей / В.Н.Дружинин. – 3-е изд. – Москва: Питер, 2007. – 358 с.
3. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения / Н.В.Кузьмина; ВНИИ проф.-техн. образования. – Москва: Высш. шк., 1990. – 117 с.
4. Макаренко А.С. Педагогические сочинения: в 8 т. / А.С.Макаренко; редкол. М.И.Кондаков и др.; Акад. пед. наук СССР. – Москва: Педагогика, 1983-1986. – 22 см.
5. Туник Е.Е. Тест Е.Торренса. Диагностика креативности. – СПб: Иматон, 1998. – 48 с.
6. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте: Психол. очерк: Кн. для учителя / Л.С.Выготский. – 3-е изд. – Москва: Просвещение, 1991. – 90 с.
7. Воронин А.Н. Диагностика вербальной креативности // Методы психологической диагностики. Вып. 2 / А.Н.Воронин, Т.В.Галкина. – М., 1994. – 214 с.
8. Зимняя И.А. Педагогическая психология: учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по педагогическим и психологическим направлениям и специальностям / И.А.Зимняя. – 3-е изд., пересмотр. – Москва: Изд-во Московского психолого-социального ин-та; Воронеж: МОДЭК, 2010. – 447 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.